

SAMARQAND VILOYATI JANUBIY HUDUDLARIDA *CITELLUS FULVUS* POPULYATSIYASINING BIOEKOLOGIK TAVSIFI

Umarov M.N.

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, O'zbekiston. mansurumarov583@gmail.com

Annotatsion. *The article analyzes the bioecological description of the population of *Citellus fulvus*, a representative of the widespread rodentia family, in the territory of Urgut district of Samarkand region. The distribution of this species in the territory of Urgut district of Samarkand region is revealed. The composition of *Citellus fulvus* colonies, differentiation by age, structure of nests, differentiation of morphological signs by age and region were analyzed.*

Hozirgi vaqtda tabiiy ekotizimlarning antropogen o'zgarishi kemiruvchilar turlari miqdoriy dinamikasining o'zgarishiga olib kelmoqda va fon hududlari uchun ko'p bo'lgan turlar sonining kamayishi kuzatilmoqda. Natijada biotsenozlardagi dominant turlar subdominant yoki kam uchraydigan turlar toifasiga kirgan oldingi turlarining ekologik o'rnini egallaydi. Tabiiy ekotizimlarning buzilishi natijasida bioxilma-xillikning tarkibiy o'zgarishi kuzatiladi, keyin esa turlarda sinantropik jarayonlar kuchayadi. 1921-1922-yillarda D.N. Kashkarov tomonidan tog' ekotizimlariga o'tkazilgan ekspeditsiya davomida kemiruvchilarning tur tarkibi, ularning biologiyasi, zararli xususiyatlari haqida yetarlicha ma'lumotlarni to'plagan.


Tadqiqot 2023-2024 yillar oralig'ida Samarqand viloyatining Urgut tumanida joylashgan turli biotoplarda o'tkazildi. Hisoblash ishlari esa N.G Chelinsev tomonidan taklif qilingan quyidagi formula bo'yicha bajarildi.

$$Dn = \frac{LW}{n}$$

Bunda D - zichlik; n - uchratilgan turlar soni; L - marshrut uzunligi; W - marshrut eni yoki marshrut o'qidan hisob olib borilgan yo'lakning chegarasigacha bo'lgan masofa.

Hisobga olish natijalari 10 gektarli o'lchovdosh maydonga ekstrapolyatsiya qilindi. Marshrut uzunligini va koloniyalardagi uyalar orasidagi masofani aniqlashda shagomer va metrlik ruletka asbobidan foydalanildi. Hisob olib borilgan joyning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda marshrutlar uzunligi 1-2 km. gacha, eni 50-100 metrgacha belgilab olindi. Ushbu zoologik tadqiqot ishlari viloyat hududining aholi yashash manzillari, agrotsenozlar, *Citellus fulvus* koloniyalari uchrash ehtimoli yuqori bo'lgan tabiiy zonalarida o'tkazildi, yog'och va temir qopqonlardan va kimyoviy dorilardan dala sharoitida foydalanib materiallar yig'ildi. Turlarning hududiy taqsimlanishi, yashash joylarining hozirgi holatini o'rganish maqsadida yilning kemiruvchilar faol bo'ladigan fasllarida kuzatuv o'tkazildi.

Samarqand viloyatining Urgut tumani hududidagi tabiiy iqlim sharoiti Rodentia turkumi vakillarining tarqalishiga qulay hududlardan hisoblanadi. Shunga muvofiq turkumi vakillarining tarqalishi va soni turli landshaftlarda turlicha ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Samarqand viloyatining Urgut tumani hududlarining Rodentia faunasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu turkum vakillariga biotik va antropogen omillarning ta'siri natijasida turkum vakillarining tabiiy yashash hududlarining asta sekin o'zgarib borishi va aholi agrotsenozlarga yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Bunday holatning jadallashib borish jarayonini o'rganish va uning sabablarini ochib berish, turlarning ekologik barqarorligining o'zgarib borish jarayonlarini baholash nazariy va amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Rodentia turkumining Sciuridae oilasi *Spermophilopsis* urug'iga mansub sariq yumronqoziq (*Citellus fulvus* Licht.) Samarqand viloyatining Urgut tumani hududlarida tarqalgan kosmopolit tur hisoblanadi. Samarqand viloyatining Urgut tumani hududlarida *Citellus fulvus* koloniyalarining uchrash darajasi, tarqalish areali va ushbu hudud faunasiga moslanish belgilari, ekologiyasi o'rganildi.(1-rasm)



1-rasm. Samarqand viloyatining Urgut tumani hududidan tutilgan sariq yumronqoziq (*Citellus fulvus*)ning joylashuv o'rnini.

Cho'llarning o'zlashtirilib vohalarga aylanishi natijasida sariq yumronqoziqlarning bu yerlarni deyarli tark etishi va soni keskin kamayishi, koloniya holida uya qurmasligi kabi boshqa yumronqoziqlardan farq qiluvchi xususiyatlar paydo bo'ladi. (2-rasm)

Oziqlanishi. Ko'pgina yashash joylarida *Citellus fulvus* o'simliklarning asosiy iste'molchisi hisoblanadi. U chala cho'l va cho'l efemerlari, piyozbosh va ildiz mevalari, shuvoqning urug' va kurtaklari, boshqali o'simliklar va boshqalar bilan oziqlanadi. Ularning ozuqa ratsionida 30 ga yaqin o'simlik turlari mavjud. Yog' to'planishi davrida *Citellus fulvus* deyarli butun kun davomida ozuqa topishga harakat qiladi. *Citellus fulvus* ovqat tarkibidagi namlik bilan qanoatlanib, suv ichmaydi. Ozuqa zahirasini saqlamaydi.



2-rasm. Sariq yumronqoziq (*Citellus fulvus*) ning uyasi

Reproduktiv funksiyasi. Qishki uyqu *Citellus fulvus*da juda uzoq davom etadi (9 oygacha cho'ziladi). Samarqand viloyati sharoitida ular fevral oyining oxiri mart oyida uyg'onadi. Birinchi bo'lib, boshqa turlarda bo'lgani

kabi, erkaklar, so'ngra urg'ochilari uyg'onadi. Uyg'ongandan so'ng, odatda 10-15 kun davom etadigan kuyukish davri boshlanadi. Yiliga bir marta ko'payadi, homiladorlik davri - 30 kun. Bolalar soni 4 dan 10 gacha va hatto 14 ta (odatda 6-8) tashkil etadi. Laktatsiya 30-40 kun davom etadi. May-iyun oylarida bolalar onasini tashlab, tarqalib ketishadi.

Xulosa qilib aytganda kemiruvchilar vakili hisoblangan sariq yumronqoziqning chekka qishloqlarda va agrosenozlar atroflarida uchrashi, hatto tuman markazlari va shaharlar atrofida ham uchrashi bu turning dominant ekanligini bildiradi. Samarqand viloyati Urgut tumanida agrosenozlar orasida qolib ketgan bo'sh yerlar, qabristonlar va shu kabi inson faoliyati qisman cheklangan tepaliklarda ularning uya koloniyalari ham uchraydi. Mazkur holatlar ularning o'ta moslashuvchanligi va tabiiy yashash areallarining tubdan qisqarganligi, qulay uya qurish joylarining yetishmasligi bilan izohlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кашкаров Д. Н., Отчет о деятельности и протоколы заседаний биологического отделения туркестанского научного общества, Труды Туркестанского госуниверситета, вып. 5, Ташкент, 1922. — С. 30.
2. Laxanov J.L. "Umurtqasizlar zoologiya".-Toshkent.: 2005. 249 b.
3. Салихбаев Х.С., Карпенко В.П., Кашкаров Д.Ю.. Экология, меры охраны и рациональное использование позвоночных животных Каршинской степи. Изд "Фан" Ташкент. 1967. - С.-6, -13, -19
4. Челинцев Н.Г. Методы расчета плотности населения животных по данным маршрутных учетов // Пространственно-временная динамика животного населения. – Новосибирск, 1985. 5-14 с.
5. Tursunov, O. T. O. G. L. (2022). Qashqadaryo viloyatidagi kemiruvchilar — rodentia turkumining ayrim turlarini biotoplardagi soni va uning ekologik omillar bilan bog'liqligi. Academic research in educational sciences, 3(11), 212-216.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.: 2000-2005.
7. Kuchboev, A. E., Karimova, R. R., Pazilov, A., Ruziev, B. H., & Amirov, O. O. (2017). Terrestrial mollusks of Uzbekistan-intermediate hosts of protostrongylids (Nematoda: Protostrongylidae).
8. Кучбоев, А. Э., Каримова, Р. Р., Пазиллов, А., Рузиев, Б. Х., & Амиров, О. О. (2017). Наземные моллюски Узбекистана–промежуточные хозяева протостронгилид (Nematoda: Protostrongylidae). *Российский паразитологический журнал*, (1 (39)), 48-54.
9. Saidmuratov S., Bobonazarov G., Nigmatullaev B. TO IMPROVE AND ANALYZE THE TEACHING METHODOLOGY OF "HIGH PLANTS MODULE" IN BOTANY FOR FUTURE BIOLOGISTS //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
10. Qizi N. Z. B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM NEWMAN, 1833 AVLODIGA MANSUB NINACHILAR TAKSANOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI //In The World Of Science and Education. – 2024. – №. 20 сентябрь БН. – С. 18-20.
11. Хосилова Г. и Исмаилова Г. (2021). ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И НЕГАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ МОЛЛЮСКОВ В БАЛАНСЕ ПРИРОДЫ. Научный прогресс , 2 (5), 397-400.
12. Boymurodov K. T. et al. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk population indicators //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 555. – С. 02002.